

RABOTI MALIK BOY MADANIY MEROSLARIMIZDAN BIRI**Fayziyeva dilora samad qizi***Navoiy davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti*

“O‘zbekiston - qadimgi tamaddun, boy madaniy meros va yuksak arxitektura an‘analariga ega mamlakat. Uning ko‘plab katta va kichik shaharlarining yoshi ming yillarni tashkil etadi. O‘zbekiston hukumati va YUNESKO qarori bilan 1997-yilda Buxoro va Xivaning 2500 yilligi, 2001 yilda Termezning 2500 yilligi, 2006 yilda Qarshining 2700 yilligi, 2007 yilda Samarqandning 2750 yilligi, 2009 yilda esa Toshkentning 2200 yilligi tantana qilindi! Shu o‘rinda 1-prezidentimiz so‘zlari beihitoyor dildan kechadi: «Milliy o‘zini anglash, kerak bo‘lsa milliy g‘ururning qayta tiklanishi va rivojlanishi jarayonida tarixiy obidalar, xalqning, ona diyorning, hududning xolisona, haqqoniy qayta tiklanishi mutlaqo muhim o‘rin tutadi» (I.A. Karimov).”

Bunyodkor o‘zbek xalqiga unut bo‘lgan tarixiy obidalarini qaytarilmoqda. Sho‘rolar davrida ular yo‘qotib yuborishga mahkum etilgan edi. Milliy madaniyatimiz durdonalariga nisbatan olib borilgan ikkiyuzlamachilik siyosati hamma joyda ko‘zga tashlanardi. Hatto qadimgi g‘ishtlardan foydalanish maqsadida ko‘plab yodgorliklar buzib tashlandi, huvillab qolgan madrasa va masjidning ko‘pchiligi omborlarga, idoralarga shuningdek qamoqxonalarga aylantirilgan edi. O‘zbekiston o‘z mustaqilligim qo‘lga kiritgach, madaniy merosni muhofaza qilish, arxitektura yodgorliklari qayta tiklash, tarixiy shaharlardagi obidalarini ta‘mirlash ishlari davlat siyosati doirasida amalga oshirildi. Samarqanddagi Amir Temur jome masjidi va Buxorodagi Minorai Kalon, Termizdagi Sulton Saodat qadamjoy dahmasi va Samarqanddagi Shohi Zinda maqbarasi o‘z arxitekturaviy jilvasi bilan yana kishilarni hayratga solmoqda. Shahrisabz, Xiva, Qo‘qon, Toshkent, Termiz, Navoiy va Karmanada katta ta‘mirlash ishlari olib borildi. Butun bashariyat uchun qimmatli hisoblangan Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Navoiy va Xiva singari shaharlarda ulkan me‘moriy inshootlar qad ko‘tardi.

“Shunday me‘moriy inshootlardan biri Navoiydan 23 kilometr uzoqlikda bir paytlar karvonlar o‘tgan joyda bir paytlar ko‘rkam bo‘lgan XI asrga oid saroy qoldiqlari – Raboti Malik (“podshoh qal‘asi” degan ma‘noni anglatadi) karvon saroyi joylashgan. Mahalliy aholi omon qolgan peshtoqlarga “Buxoro darvozalari” deb nom bergan. Raboti Malik XI-XII asrlarda Movarounnahr yerlariga egalik qilgan Qoraxoniylar sulolasidan bo‘lgan turkiy hukmdorlarning cho‘ldagi mustahkam qarorgohi bo‘lgan. XIII asrdan boshlab, O‘rta Osiyoning mo‘g‘ullar istilosidan keyin, XVIII asr boshlariga

qadar Raboti Malik savdo karvonlari uchun karvon saroy vazifasini o'tagan. Qarorgohda yashash xonasi, oshxona, hammom, masjid va otxonalar mavjud edi. Darvozadan unchalik uzoq bo'lmagan joyda hozirgi kungacha saqlanib qolgan suv ta'minoti manbai – Sardoba joylashgan edi.”

“Bu yerdan Buyuk Ipak yo'li yo'nalishlaridan biri o'tgan. Bugungi kunda saqlanib qolgan karvonsaroy xarobalari va kirish peshtoqinagina ko'rish mumkin. Karvonsaroy birinchi marta XIX asrning o'rtalarida tilga olina boshlandi. Uning ko'rinishi sayohatchilarning rasmlariga asosan, shuningdek, o'tgan asr arxeologik qazishmalari natijalariga ko'ra 27 yoshli tabiatshunos A. Lemanning yodgorlik eskiziga asosan qayta tiklangan . Karvonsaroyning kirish joyi sakkiz qirrali va se barg naqsh ko'rinishidagi g'isht bilan qoplangan. Old qismi arkasining perimetri epigrafika kamari bilan bezatilgan. Raboti-Malik hududida masjidlar, gumbazli ayvonlar, hammomlar, yashash joylari, otlar va tuyalar uchun mo'ljallangan turargohlarning vayronalari topilgan. Shuningdek sopol, metallardan ishlangan buyumlar, qimmatbaho sopol idishlar, zargarlik buyumlari, qozonlar, ko'pgina tangalar topilgan. Minora alohida uslub va g'aroyib texnik usullar bilan qurilgan.”

Minoraning qurilishida keramika, gil, yog'ochdan foydalanilgan. Shu kungacha olimlar minoraning nima maqsadda qurilganligini aniqlasholmagan. Ammo oxirgi vaqtlarda Raboti-Malik karvonsaroy vazifasini o'tagani tarixiy faktidir. N.B. Nemsova ushbu qurilmani o'rganib chiqilishiga o'z hissasini qo'shgan. Aynan N.B. Nemsova ushbu qurilma dastlabki onlarda shahardan tashqarida joylashgan saroy vazifasini o'tagan deb taxmin qilgan. Karvonsaroy yaqinida Sardoba (suv saqlashga mo'ljallangan sisterna) qurilgan. Sardoba o'sha davrda sayyohlar va savdogarlar uchun ichimlik suvi saqlaydigan buloq vazifasini bajargan.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, Raboti Malik Markaziy Osiyodagi eng qadimgi monumental arxitektura yodgorligi hisoblanadi. U karvonsaroydan tashqari, atrof va chegarani qo'riklash istehkomi vazifalarini ham bajargan. Shuningdek, Karmana va Tavois o'rtasida Buyuk Ipak yo'lidan o'tuvchi yo'lovchilar uchun muhim va zaruriy qo'nalg'a xizmatini ado etgan. XX asr o'rtalarida olib borilgan qazilma ishlari jarayonida ushbu noyob minoraning qay darajada mukammal rejalashtirilganligini aniqlashga muvaffaq bo'lishgan. Bu qurilma ikki qismga ajratilgan mustahkam devorlar bilan o'ralgan 100x100m hajmdagi maydonni egallagan .